LINGVAKULTUROLOGIYA FANINING YIRIK ILMIY MAKTABLARIVA ULARNING ILMIY-NAZARIY YO‘NALISHLARI

Normamatova Umida

Sharof Rashidov nomidagi

Samarqand davlat universiteti

1-kurs magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada lingvakulturologiya fanining shakllanish tarixi va uning nazariy-metodologik poydevorini yaratgan to‘rtta yirik ilmiy maktab — Yu.S. Stepanov, N.D. Arutyunova, V.N. Teliya hamda RUDN (V.V. Vorobyov va V.M. Shaklein) lingvakulturologik maktablarining tadqiqot yo‘nalishlari qiyosiy tahlil qilingan. Maqolada til va madaniyat integratsiyasining dastlabki bosqichlari, XX asrning 90-yillarida lingvakulturologiyaning mustaqil fan sifatida shakllanish omillari yoritilgan. Har bir ilmiy maktabning markaziy tushunchalari — konsept va uning qatlamlari, mantiqiy-semantik tahlil va nutqiy harakatlar, frazeologik birliklardagi madaniy konnotatsiya, etalon va stereotiplar hamda lingvokulturema va lingvomadaniy vaziyat kabi kategoriyalar atroflicha tahlil etilgan. Tadqiqot natijalari ushbu maktablar tomonidan ishlab chiqilgan nazariy-metodik asoslar bugungi kunda etnolingvistika, kognitiv tilshunoslik, tarjimashunoslik va til o‘qitish metodikasida keng qo‘llanilayotganini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: lingvakulturologiya, ilmiy maktablar, konsept, madaniy konnotatsiya, etalon, stereotip, lingvokulturema, lingvomadaniy vaziyat, frazeologiya.

Abstract. This article provides a comparative analysis of the research directions of the four major scientific schools that formed the history of the formation of linguoculturology and created its theoretical and methodological foundation: Yu.S. Stepanov, N.D. Arutyunova, V.N. Telia, and the RUDN (V.V. Vorobyov and V.M. Shaklein) linguoculturological schools. The article highlights the initial stages of language and culture integration and the factors of the formation of linguoculturology as an independent science in the 1990s. The central concepts of each scientific school—such as the concept and its layers, logical-semantic analysis and speech acts, cultural connotation

in phraseological units, standards and stereotypes, as well as linguocultureme and linguocultural situation—are thoroughly analyzed. The research results show that the theoretical and methodological foundations developed by these schools are widely used today in ethnolinguistics, cognitive linguistics, translation studies, and language teaching methodology.

Keywords: linguoculturology, scientific schools, concept, cultural connotation, standard, stereotype, linguocultureme, linguocultural situation, phraseology.

Аннотация. В данной статье проводится сравнительный анализ исследовательских направлений четырех крупных научных школ, сформировавших историю становления лингвокультурологии и создавших ее теоретико-методологический фундамент: Ю.С. Степанова, Н.Д. Арутюновой, В.Н. Телия и лингвокультурологической школы РУДН (В.В. Воробьев и В.М. Шаклеин). В статье освещаются начальные этапы интеграции языка и культуры, а также факторы формирования лингвокультурологии как самостоятельной научной дисциплины в 90-х годах XX века. Подробно анализируются центральные понятия каждой научной школы — концепт и его слои, логико-семантический анализ и речевые акты, культурная коннотация в фразеологических единицах, эталоны и стереотипы, а также лингвокультурема и лингвокультурная ситуация. Результаты исследования показывают, что теоретико-методические основы, разработанные данными школами, в настоящее время широко применяются в этнолингвистике, когнитивной лингвистике, переводоведении и методике преподавания языков.

Ключевые слова: лингвокультурология, научные школы, концепт, культурная коннотация, эталон, стереотип, лингвокультурема, лингвокультурная ситуация, фразеология.

Kirish. Til va madaniyat hamda til va millat tushunchalarining o'zaro ajralmas aloqadorligi masalasi XX asr boshlaridayoq qator tilshunos olimlarning ilmiy qarashlarida o'z aksini topgan edi. Xususan, V. fon Humboldt o'zining nazariy konseptatsiyalarida har

bir xalqning tilida o'sha millatning tarixi, madaniyati va milliy ruhi namoyon bo'lishini alohida ta'kidlab o'tgan.

Til va madaniyat integratsiyasini amaliy tadqiq etishda 1909-yilda Avstriyada shakllangan "Wörter und Sachen" ("So'zlar va narsalar") ilmiy maktabi muhim bosqich bo'ldi. Rudolf Meringer va Vilgelm Meyer-Lyubke kabi tilshunoslar tomonidan asos solingan ushbu maktab lisoniy birliklarning ma'nosi hamda kelib chiqishini chuqur tushunish uchun ular ifodalayotgan real moddiy buyumlar, madaniyat, urf-odat va ashyolar tarixini o'rganish shart degan tamoyilni ilgari surdi hamda xuddi shu nomdagi ilmiy jurnalni nashr eta boshladi. Ushbu yondashuv dialektologiya, leksikologiya va etimologiya sohalari bilan bir qatorda, keyinchalik vujudga kelgan etnolingvistika va lingvakulturologiya uchun mustahkam poydefor vazifasini o'tadi. Shu kabi bir qancha omillar natijasida XX asrning 90-yillariga kelib lingvakulturologiya mustaqil fan soha sifatida uzil-kesil shakllandi va jadal rivojlanish bosqichiga kirdi. Bu davr fan sohasi metodologiyasi, nazariy asoslari, asosiy tushunchalari hamda tadqiqot yo'nalishlarining qat'iy belgilanishi bilan ajralib turadi. Aynan shu davrda lingvakulturologiyaning nazariy-amaliy bazasini yaratishda to'rtta yirik ilmiy maktab yetakchi rol o'ynadi.

Asosiy qism. XX asrning oxirlarida Moskva tilshunoslik mezonida to'rtta yirik lingvakulturologik ilmiy maktab shakllandi:

1. Yu. S. Stepanov lingvakulturologiya maktabi. Bu maktabning asoschisi tilshunos, semiotik va til faylasufi Yuriy Sergeyevich Stepanov (1930-2012). Stepanov maktabida eng katta e'tibor konsept - xalqning madaniy tajribasi, qadriyatlari va his-tuyg'ularini o'zida mujassamlashtirgan tushunchani o'rganishga qaratilgan. Xususan, konseptlarning tarixiy shakllanishi, vaqt davomida o'zgarishi va ularda saqlanib qoladigan barqaror madaniy mazmunni ochib berish bu yo'nalishning asosiy vazifasi bo'lgan. Stepanov konsept tarkibida uchta qatlamni ajratgan. Birinchisi aktual yoki faol qatlam. Bu tushunchaning bugungi kunda odamlar tomonidan keng tushuniladigan va kundalik muloqotda ishlatiladigan asosiy ma'nosidir. Uni o'rganish orqali konseptning hozirgi mazmuni va qo'llanishi aniqlanadi. Ikkinchisi tarixiy yoki passiv qatlam. Bu tushunchaning oldingi davrlarda shakllangan, lekin hozir ham ayrim ijtimoiy guruhlar orasida saqlanib qolgan

ma'nolaridir. Ushbu qatlamni o'rganish konseptning tarix davomida qanday o'zgarganini tushunishga yordam beradi. Uchinchisi ichki shakl yoki etimologik qatlam. Bu konseptni ifodalovchi so'zning kelib chiqishi va dastlabki ma'nosi bilan bog'liq. Odamlar kundalik nutqda bu ma'noni anglamasligi mumkin. Uni aniqlash uchun so'zning tarixi va kelib chiqishi maxsus o'rganiladi. Stepanov ilmiy maktabda faoliyat yuritgan olimlar. V. Z. Demyankov matnni tushunish va talqin qilish, insonning bilish faoliyati hamda til o'rtasidagi munosabatlarni o'rgangan. Uning «Kognitsiya va matnni tushunish» nomli ishi 2005-yilda chop etilgan. Bu tadqiqot matnni anglash jarayonini inson tafakkuri bilan bog'liq holda ko'rib chiqadi. V. I. Postovalova til, dunyoqarash va ma'naviy madaniyat o'rtasidagi aloqalarni tadqiq qilgan. Uning «Til va dunyoni anglash. Lingvofalsafiy talqin tajribasi» nomli asari 2017-yilda nashr etilgan. Bu ishda til va insonning dunyoni tushunishi o'rtasidagi munosabatga e'tibor qaratilgan.

2. N. D. Arutyunova maktabi. Nina Davidovna Arutyunova (1923-2018) tilning ma'no tizimi, inson tafakkuri va nutqiy faoliyatini o'rgangan tilshunosdir. U 1986-yilda Rossiya Fanlar akademiyasi Tilshunoslik institutida «Tilning mantiqiy tahlili» («Логический анализ языка») muloqotiy guruhini tashkil qilgan. Bu guruh tilni madaniyat bilan bog'liq holda o'rganuvchi mahalliy va xorijiy olimlarni birlashtirgan. Arutyunova yo'nalishi madaniy tushunchani faqat alohida so'zning lug'aviy ma'nosi bilan cheklamasdan, uning gap va matndagi ishlatilishi bilan bog'liq holda o'rganishga yordam bergan. Uning tadqiqotlarida gap ma'nosi, baholash, voqea va fakt kabi kategoriyalar markaziy o'rin tutgan. Buning lingvokulturologiya uchun ahamiyati shundaki, insonning dunyo haqidagi tasavvuri faqat nimani nomlashida emas, balki voqeani qanday ifodalashi va unga qanday baho berishida ham namoyon bo'ladi. Arutyunovaning asarlari ana shu masalalarni bir ilmiy yo'nalishda birlashtiradi. Bu maktab turli davrlar va xalqlar matnlarida uchraydigan madaniy tushunchalarni o'rganishga e'tibor qaratgan. Bunda asosiy maqsad faqat bir xalq madaniyatiga xos belgilarni ko'rsatish emas, balki inson tafakkuri va madaniyatidagi universal kategoriyalar qanday til vositalari bilan ifodalanishini aniqlash ham bo'lgan. Arutyunovaning «Til ma'nolarining turlari: baholash, voqea, fakt» («Типы языковых значений: Оценка. Событие. Факт») (1988) asari baholash, voqea va fakt

kategoriyalarining tildagi ifodasiga bag'ishlangan. Ushbu mavzular insonning voqelikni qanday tushunishi va unga qanday munosabat bildirishini o'rganish bilan bog'liq. «Til va inson dunyosi» («Язык и мир человека») (1998) uning asosiy umumlashtiruvchi asarlaridan biridir. Unda tilni insonning dunyoni anglashi bilan bog'liq holda o'rganadigan qarashlari jamlangan. «Tilning mantiqiy tahlili: nutqiy harakatlar tili» («Логический анализ языка: Язык речевых действий») (1994) to'plami Arutyunova va N. K. Ryabtseva mas'ul muharrirligida nashr etilgan. Unda so'z va amal, nutqiy va nutqdan tashqari faoliyat munosabati, nutqiy xulq hamda muloqotning asosiy konseptlari o'rganilgan.

3. V. N. Teliya maktabi (Moskva frazeologik tahlil lingvakulturologiya maktabi): Veronika Nikolayevna Teliya (1930-2011) umumiy va rus frazeologiyasi, semantika, pragmatika hamda til birliklarining nomlash xususiyatlarini o'rgangan tilshunosdir. U 1986-yilda Rossiya Fanlar akademiyasi Tilshunoslik institutida «Umumiy frazeologiya va madaniyat tili» ilmiy guruhini tashkil etgan. Guruh 2010-yildan «Lingvokulturologik tadqiqotlar» nomi bilan faoliyatini davom ettirgan. Teliya rahbarligida 1990-yillarda frazeologizmlarni lingvokulturologik o'rganish yo'nalishi rivojlangan. Uning markazida til va madaniyatning o'zaro aloqasi, ayniqsa, madaniy mazmunning iboralarga qanday singishi hamda nutqda qanday namoyon bo'lishi masalasi turgan. Teliya maktabining asosiy tushunchalaridan biri - madaniy konnotatsiya. Bu til birligining asosiy ma'nosi bilan bog'liq holda yuzaga keladigan madaniy mazmun va assotsiatsiyalardir. Tadqiqotchi iborani tahlil qilganda uning nimani anglatishini aniqlash bilan cheklanmaydi, balki undagi obraz qanday madaniy tasavvur bilan bog'lanishini ham tushuntiradi. Shu sababli bu maktabda iboraning ma'nosi, uning obrazli asosi va til egasining madaniy bilimi o'rtasidagi munosabatga katta e'tibor berilgan. Etalon va stereotiplar. Teliya va uning hamkorlari frazeologizmlarda madaniyatga xos ramzlar, etalonlar va stereotiplar aks etishini o'rgangan. Etalon muayyan sifatni o'lchash yoki tasavvur qilish uchun xizmat qiladigan namuna; stereotip esa madaniy muhitda takrorlanib keladigan barqaror tasavvurdir. Ularning lug'aviy ishlarida iboralar ana shunday madaniy belgilar sifatida sharhlangan. Bu yondashuvning muhim tomoni shundaki, iboraning obrazini ko'rsatishning o'zi yetarli emas, balki uning madaniy mazmunni qanday ifodalashini ham izohlash kerak. Teliya

iboralarning hissiy-ekspressiv xususiyatlarini ham tadqiq qilgan. Uning ishlarida til birliklari orqali so'zlovchining munosabati, bahosi va nutqiy ta'siri qanday ifodalanishi o'rganilgan. Shu tariqa frazeologizmlar semantikasi ma'nosi bilan pragmatikasi muloqotdagi ishlatilishi birgalikda tahlil qilingan. «Frazeologiya nima?» («Что такое фразеология?») (1966) Teliyaning frazeologiyaga bag'ishlangan dastlabki muhim monografiyalaridan biridir. Mariya Lvovna Kovshova Teliyaning shogirdi va uning yo'nalishini davom ettirgan asosiy tadqiqotchi xonimdir. U 1996-yilda «Frazeologik birliklarning madaniy-milliy o'ziga xosligi: kognitiv jihatlar», 2009-yilda esa «Frazeologizmlar semantikasi va pragmatikasi: lingvokulturologik jihat» mavzularida dissertatsiya himoya qilgan. 2010-yildan ilmiy guruhga rahbarlik qilgan. Uning «Frazeologiyada lingvokulturologik metod: madaniyat kodlari» (2012) asari iboralarni madaniy jihatdan tahlil qilish usulini rivojlantirgan. Keyingi ishlarida esa maqollar, topishmoqlar, iboralar va atoqli otlardagi madaniy mazmunni o'rgangan. D. B. Gudkov. Dmitriy Borisovich Gudkov 2006-yilgi katta frazeologik lug'at hammualliflaridan biridir. U Kovshova bilan birga «Rus madaniyatining tana kodi: lug'at uchun materiallar» (2007) asarini yaratgan. Bu ish inson tanasi bilan bog'liq madaniy tasavvurlarni til materiali orqali o'rganishga qaratilgan. Gudkov va Kovshova «Lingvokulturologik terminlar lug'ati» ni ham yaratgan. 2017-yilda nashr etilgan bu lug'at yo'nalishning asosiy tushunchalarini tizimlashtirishga xizmat qilgan.

4. Rossiya xalqlari do'stlik universiteti (V.V.Vorobyov va V.M.Sheklein) lingvakulturologiya maktabi. V. V. Vorobyov va V. M. Shaklein bilan bog'liq bo'lgan bu maktab, Rossiya xalqlar do'stligi universitetida shakllangan. Bu yo'nalishning asosiy xususiyati til, madaniyat va shaxs munosabatlarini birgalikda o'rganish, olingan natijalarni til o'qitish va madaniyatlararo muloqotga tatbiq etishdir. Mazkur yo'nalish E. M. Vereshchagin va V. G. Kostomarovning tilni madaniyat bilan bog'liq holda o'qitishga oid lingvomamlakatshunoslik qarashlarini rivojlantirgan. Bunda til o'rganish faqat grammatika va so'zlarni o'zlashtirish emas, balki shu tilda so'zlashuvchi xalqning madaniy hayotini tushunish bilan ham bog'liq deb qaralgan. Vorobyov va Shakleinning ishlari bir ilmiy muhitga mansub bo'lsa-da, ularning tadqiqot urg'ulari bir xil bo'lmagan. Vorobyov

lingvokulturologiyaning nazariy birliklari va metodlarini ishlab chiqishga, Shaklein esa matn, tarixiy-madaniy sharoit va lingvomadaniy vaziyatni o'rganishga katta e'tibor bergan. Vorobyov yo'nalishining muhim tushunchasi lingvokulturemadir. Bu til birliklarini ularning madaniy mazmuni bilan birgalikda o'rganishga xizmat qiladigan tushuncha hisoblanadi. Bunda so'z yoki ifodaning lug'aviy ma'nosi ortida turgan madaniy bilim ham hisobga olinadi. Vorobyovning «Lingvokulturema lingvokulturologiya birligi sifatida» maqolasida aynan shu birlikning mazmuni, til tashqarisidagi voqelikni aks ettirishi va til-madaniyat munosabatini tushuntirishdagi o'rni tahlil qilingan. Shaklein tadqiqotlarida lingvomadaniy vaziyat alohida o'rin tutadi. Ushbu yo'nalishda til va matn ularni yuzaga keltirgan muayyan tarixiy-madaniy sharoit bilan bog'liq holda o'rganiladi. Uning «Lingvomadaniy vaziyat va matn tadqiqi» asari shu masalaga bag'ishlangan. Shaklein o'z tadqiqotlarida matn yaratilgan davr va madaniy muhitga alohida e'tibor bergan va bu yondashuv Shakleinning keyingi tarixiy lingvokulturologik tadqiqotlarida davom ettirilgan. Lingvokulturologiya rivojiga qo'shgan hissasi. Birinchidan, maktab lingvokulturologiyaning nazariy tushunchalarini rivojlantirishga hissa qo'shgan. Xususan, lingvokulturema orqali til va madaniyatni birgalikda tavsiflashga xizmat qiladigan tadqiqot birligi taklif etilgan. Ikkinchidan, til, madaniyat va shaxs munosabatini umumiy tadqiqot dasturiga aylantirgan. Bu lingvokulturologiyani faqat madaniy ma'nolarning inson tomonidan o'zlashtirilishi va muloqotda qo'llanishini o'rganish bilan bog'lagan. Uchinchidan, matnni tarixiy-madaniy sharoitda tahlil qilish yo'nalishini rivojlantirgan. Shakleinning lingvomadaniy vaziyat va tarixiy matnga oid asarlarida bu jihat alohida ko'rinadi. To'rtinchidan, tadqiqotlar kasbiy muloqot va yangi kommunikativ muhitlarni qamrab olgan. Buni kasbiy muloqot hamda rus blogosferasiga bag'ishlangan keyingi jamoaviy monografiyalarda ko'rish mumkin. V. V. Vorobyov. «Lingvokulturologiya: nazariya va metodlar» («Лингвокультурология: теория и методы») (1997) uning asosiy monografiyalaridan biridir. «Lingvokulturema lingvokulturologiya birligi sifatida» («Лингвокультурема как единица лингвокультурологии») maqolasida til va madaniyat munosabatini o'rganishda lingvokulturemaning o'rni yoritilgan. «Qiyosiy lingvokulturologiya» («Сопоставительная лингвокультурология») (2015) Vorobyov,

L.G. Sayaxova va R. X. Xayrullina hammuallifligida yaratilgan. V. M. Shaklein. «Lingvomadaniy vaziyat va matn tadqiqi» («Лингвокультурная ситуация и исследование текста») (1997) asarida lingvomadaniy vaziyat bilan matnni o'rganish o'rtasidagi aloqa markazga qo'yilgan. «Matnning tarixiy lingvokulturologiyasi» («Историческая лингвокультурология текста») (2012) monografiyasi matnni tarixiy-lingvokulturologik nuqtayi nazardan tadqiq etishga bag'ishlangan. «Lingvokulturologiya: o'tmish, hozirgi zamon, kelajak» («Лингвокультурология. Прошлое. Настоящее. Будущее») (2013) asari ushbu fanning rivojlanish yo'lini umumlashtirishga qaratilgan.

Xulosa. Yu. S. Stepanov, N. D. Arutyunova, V. N. Telia va V. V. Vorobyov o'z ilmiy qarashlari doirasida lingvokulturologiyaning to'rt yirik maktabini yaratdilar. Har bir maktab fanning ma'lum bir jihatiga madaniyat konstantalarining diaxronik tadqiqi, umummadaniy terminlarni matnlar orqali o'rganish, frazeologik birliklarning lingvomadaniy tahlili hamda tilda aks etgan milliy-madaniy qadriyatlar tizimini o'rganishga mustahkam ilmiy poydefor yaratdi. Qolaversa, bu olimlarning shogirdlari ham o'z tadqiqotlari, ilmiy maqolalari va darsliklari orqali fan rivojiga salmoqli hissa qo'shdilar. Xususan, Stepanov maktabi madaniyatning tarixiy uzluksizligini, Arutyunova maktabi turli xalqlar va davrlar matnlaridagi universal madaniy tushunchalarni, Telia rahbarligidagi Moskva maktabi frazeologizmlarning madaniy-semantik xususiyatlarini, Vorobyov maktabi esa tildagi ma'naviy qadriyatlar va milliy dunyoqarashni tadqiq etishga alohida e'tibor qaratdi. Lingvokulturologiya maktablari fan rivojida katta ahamiyat kasb etgan. Chunki aynan ularning yaratgan nazariyalari, ishlab chiqqan metodlari, tadqiqot yo'nalishlari va ilmiy asarlari lingvokulturologiyaning mustaqil fan sifatida shakllanishiga zamin bo'ldi. Bu maktablar til va madaniyat o'rtasidagi bog'liqlikni chuqur o'rganish imkonini berib, milliy tafakkur, qadriyatlar, ramzlar va til birliklarining madaniy mazmunini ilmiy asosda tahlil qilish yo'lini ochdi. Shu tariqa, to'rt maktab faqat o'z davri uchun emas, balki keyingi avlod tadqiqotchilari uchun ham nazariy-metodik asos yaratdi. Ularning merosi bugungi kunda lingvokulturologiya, etnolingvistika, kognitiv tilshunoslik, tarjimashunoslik va til o'qitish sohalarida ham samarali qo'llanilmoqda. Demak, Yu. S. Stepanov, N. D. Arutyunova, V. N. Telia va V. V. Vorobyov maktablari

lingvokulturologiyaning mustaqil poydevorini yaratgan holda, fanning yanada rivojlanishi va kengayishiga xizmat qildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Степанов, Ю. С. Константы: Словарь русской культуры. URL: https://urss.ru/cgi-bin/db.pl?lang=Ru&page=Book&id=203607

2. Телия, В. Н. Русская фразеология: Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. URL: https://rusneb.ru/catalog/000199_000009_001737508/

3. Институт языкознания РАН. URL: https://iling-ran.ru/

4. Воробьев, В. В. Лингвокультурема как единица лингвокультурологии. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/lingvokulturema-kak-edinitsa-lingvokulturologii

5. Вестник РУДН. Серия: Лингвистика. URL: https://journals.rudn.ru/russian-language-studies/article/xml/30667